

YOSHLAR KELAJAGINI YARATISH YO'LIDA YANGI TASHABBUSLAR VA ULKAN IMKONIYATLAR

Shohruhmirzo Qosimov

*O'zXDP Farg'ona viloyati kengashi yoshlar
va xotin-qizlar bilan ishlash bo'lim boshlig'i*

Annotatsiya: Maqolada yoshlar siyosatida amalga oshirilayotgan yangi tashabbuslar, ularning ijtimoiy, iqtisodiy va innovatsion imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan islohotlar tahlil qilinadi. Ochiq muloqotda davlatimiz rahbari, muhtaram Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan tashabbuslar yoshlarning ta'limi, tadbirkorligi, startup faoliyati, ijtimoiy qo'llab-quvvatlanishi va kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilganligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: yoshlar siyosati, tadbirkorlik, innovatsiya, startup, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ta'lim, kasbiy ko'nikmalar, volontyorlik, kreditlar, stipendiya, yoshlar biznes inkubatori, "Kelajak tadbirkori" dasturi

Bugungi globallashuv sharoitida yoshlarning ta'limi, bandligi va iqtisodiy faolligi mamlakat taraqqiyotining eng muhim omillaridan biri sifatida ko'rilmogda. Yurtimizda oxirgi yillarda yoshlar masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Bu borada amalga oshirilgan islohotlar nafaqat institutsional o'zgarishlarni, balki yoshlarning hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan amaliy choralarni ham o'z ichiga olmoqda.

24-fevral kuni davlatimiz rahbari, muhtaram Shavkat Mirziyoyevning yoshlar bilan o'tkazgan ochiq muloqoti aynan ushbu jarayonning navbatdagi bosqichiga asos soldi. Muloqotda ilgari surilgan tashabbuslar ko'lami va yo'nalishlari bilan o'ziga xos bo'lib, yoshlarning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash, ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish, startup va innovatsion g'oyalarni qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy faollikni rag'batlantirish kabi bir qator strategik maqsadlarni o'zida mujassam etadi.

Bu tashabbuslar nafaqat yoshlarning bugungi ehtiyojlariga javob beradi, balki ularning kelajakdagi maqsadlarini ro'yobga chiqarish uchun mustahkam poydevor yaratadi. Eng muhimi, ushbu yondashuv yoshlarni siyosatning obyekti sifatida emas, balki islohotlarning faol ishtirokchisi sifatida ko'rishga asoslanadi. Natijada, mamlakatimizda intellektual salohiyati yuqori, tashabbuskor, zamonaviy qarashlarga ega yangi avlod shakllanib bormoqda.

Yurtimizda yoshlar masalasiga doimiy, izchil va strategik yondashuv shakllanib bormoqda. 24-fevral kuni bo'lib o'tgan ochiq muloqot aynan shu jarayonning navbatdagi muhim bosqichiga aylandi. Muloqot davomida **davlatimiz rahbari** tomonidan ilgari surilgan tashabbuslar nafaqat yoshlarning iqtisodiy faolligini kuchaytirishga, balki ularning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeini mustahkamlashga

xizmat qiladigan kompleks dastur sifatida katta ahamiyatga ega.

Eng avvalo, har payshanba kunini “Yoshlar kuni” sifatida belgilash tashabbusi davlat boshqaruvi tizimida yoshlar bilan ishlashni muntazam va aniq mexanizmga aylantiradi. Endilikda har bir vazirlik, idora va hokimlik yoshlar uchun ochiq maydonga aylanadi. Bu esa yoshlarning muammolarini eshitish, takliflarini ko‘rib chiqish va real yechimlar ishlab chiqishda yangi bosqichni boshlab beradi.

Yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha belgilangan vazifalar miqyos jihatidan ham, mazmun jihatidan ham katta istiqbolga ega. Qo‘shimcha 200 million dollar yo‘naltirilishi, o‘zini o‘zi band qilgan yoshlar uchun kredit miqdorining sezilarli oshirilishi, innovatsion g‘oyalarga 100 ming dollargacha investitsiya kiritish imkoniyatining yaratilishi — bularning barchasi yangi iqtisodiy avlod shakllanishiga xizmat qiladi. Natijada minglab yoshlar ilk biznes g‘oyalarini amaliyotga tatbiq etish, mavjud faoliyatini kengaytirish yoki startaplarini bozorda mustahkamlash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Shuningdek, “Kelajak tadbirkori” dasturining takomillashtirilgan shaklda yo‘lga qo‘yilishi yoshlar uchun uzoq muddatli, qulay va past foizli kreditlar olish imkoniyatini ochadi. Eng muhimi, garov talab qilinmaydigan kredit mexanizmlarining joriy etilishi yangi tadbirkorlar uchun mustahkam boshlang‘ich poydevor yaratadi.

Bu tashabbuslarning barchasi yoshlar tashabbusi va salohiyatiga tayanadigan iqtisodiy modelni shakllantirish, ularga rasmiy qo‘llab-quvvatlash emas, balki real amaliy yordam ko‘rsatishga qaratilgan.

Muloqot davomida ilgari surilgan tashabbuslarning muhim qismi innovatsion fikrlashga ega yoshlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgani bilan ajralib turadi. So‘nggi yillarda mamlakatimizda startap muhitining shakllanayotganini ko‘rish mumkin, biroq uni kengaytirish va barqaror ekotizimga aylantirish uchun qo‘shimcha turtki zarurligi ayon edi. Muhtaram Shavkat Mirziyoyev tomonidan bildirilgan yangi tashabbuslar esa aynan shunday zaruriy omil bo‘lib xizmat qiladi.

Innovatsion startap loyihalariga 100 ming dollargacha investitsiya kiritish imkoniyati — yoshlar uchun o‘z g‘oyasini xalqaro standartlarda sinab ko‘rishning haqiqiy maydonini yaratadi. Moliyalashtirishning oshirilgani nafaqat kapital masalasini hal qiladi, balki yoshlarni keng fikrlashga, yangi texnologiyalarni sinovdan o‘tkazishga, bozorga chiqish strategiyalarini puxta o‘ylashga undaydi.

Bundan tashqari, texnikumlarda startaplar yaratishga ruxsat berilishi ta’lim tizimida katta burilishdir. Bu yangilik yoshlar uchun bilim va amaliyotni birlashtiradigan noyob imkoniyatni taqdim etadi. Texnikum bosqichidayoq 1 milliard so‘mgacha moliyaviy ko‘mak olish — yosh mutaxassislarni mustaqil yondashuvga, yangilik yaratishga va tajribalar o‘tkazishga ruhlantiradi.

Yoshlar uchun xalqaro tajriba ham juda muhim. Shu ma’noda, texnikum o‘quvchilari uchun “Work and travel” dasturi orqali xorijda ishlash imkoniyati

yaratilishi ularning nafaqat kasbiy ko'nikmalarini, balki dunyoqarashini kengaytiradi. Bunday tajribalar yoshlarning global mehnat bozori talablari bilan tanishishiga, til bilimi va madaniy muloqot ko'nikmalarining mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, "Yoshlar biznes inkubatori"ning har bir hududda tashkil etilishi startaplar uchun doimiy maslahat, mentorluk, biznes-reja tuzish va bozorga chiqish bo'yicha ko'mak beruvchi muhim platformaga aylanadi. Bu markazlar yoshlar orasida tadbirkorlik madaniyatining shakllanishida asosiy rol o'ynashi shubhasiz.

Yana bir muhim yo'nalish — xorijdagi nufuzli oliygohlar bilan hamkorlikda "Yangi avlod tadbirkorlari" dasturini amalga oshirishdir. Garvard va Stenford kabi universitetlar bilan hamkorlikda 40 ming yoshni zamonaviy biznes yondashuvlariga o'rgatish tashabbusi yoshlar tafakkurini global standartlarga mos darajada rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunday ko'lamdagi ta'lim dasturi iqtisodiyotning kelajakdagi ustunlarini yaratishda asosiy poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, ilgari surilgan tashabbuslarning ikkinchi qismi innovatsion tafakkurga ega yoshlar uchun keng yo'l ochadi. Bu yo'nalishlar nafaqat yangi startaplar paydo bo'lishiga, balki ularning barqaror bozor ishtirokchisiga aylanishiga ham xizmat qiladi. Eng muhimi, yoshlarning o'z g'oyasiga ishonchi mustahkamlanadi, ular yangi avlod iqtisodiyoti uchun faol ishtirokchiga aylana boradi.

Yoshlar bilan o'tkazilgan ochiq muloqotning yana bir muhim jihati — ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini yangicha yondashuv asosida kengaytirishdir. Mamlakatimizda inson kapitaliga e'tibor yildan yilga kuchayib borayotgani bejiz emas. Chunki taraqqiyotning poydevori, avvalo, yoshlarning bilimiga, mahoratiga, madaniyatiga va jamiyatdagi faolligiga bog'liq. Shu nuqtayi nazardan, muhtaram Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan yangi tashabbuslar har bir yoshning imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Volontyorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha takliflar buning yaqqol misolidir. Yoshlar ishlari agentligi qoshida "Volontyorlikni qo'llab-quvvatlash" jamg'armasining tashkil etilishi bu yo'nalishning tizimli rivojlanishini ta'minlaydi. Jamg'armaga har yili 62 milliard so'm ajratilishi volontyorlikni bir martalik tashabbus emas, balki yoshlarni yetuklikka, jamoatchilik faolligiga, insonparvarlikka undaydigan doimiy ijtimoiy maktabga aylantiradi. Eng yaxshi volontyorlik loyihalariga 100 million so'mgacha grantlar ajratilishi esa yoshlarning jamiyatga foydali va ta'sirchan tashabbuslar bilan chiqishiga yo'l ochadi.

Yosh oilalarni qo'llab-quvvatlash borasidagi takliflar ham e'tiborga sazovor. Uy-joy masalasida ularning imkoniyatini kengaytirish maqsadida ipoteka kreditlarining 14 foizdan yuqori qismi davlat budjetidan qoplab berilishi yosh oilalar uchun muhim ko'makdir. Bu tashabbus nafaqat moddiy yengillik yaratadi, balki oilaviy barqarorlik va ijtimoiy ishonchni mustahkamlaydi.

Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish bilan bog'liq takliflar esa ma'naviy

yuksalishga qaratilgan alohida yo‘nalish bo‘lib, yoshlar tafakkurini boyitishda beqiyos ahamiyatga ega. Iqtidorli yozuvchilarga ijod uchun oyiga 20 million so‘mdan haq to‘lanishi ularning ijodiy izlanishlarini qo‘llab-quvvatlash bilan birga, milliy adabiyotimizning yangi avlodini shakllantirishga xizmat qiladi. Maktablardagi eng faol kitobxon o‘quvchilarga 10 million so‘mdan mukofot berilishi esa o‘quvchilar orasida kitob o‘qishga qiziqishni yanada oshiradi.

Shu bilan birga, kitob savdosini oyiga 10 ming donadan oshirgan tadbirkorlarga 1 milliard so‘mgacha 7 foizli ssuda ajratilishi nafaqat yosh o‘quvchilar, balki butun jamiyatda kitob bozori faollashuviga olib keladi. Bu tashabbus kitob mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar, nashriyotlar, savdo nuqtalari va ijodkorlar uchun ham yangi imkoniyatlar yaratadi.

“Ikkinchi imkon” loyihasi orqali jazoni o‘tab bo‘lgan yoshlarni zamonaviy IT-kasblar va xorijiy tillarga bepul o‘qitish tashabbusi esa ijtimoiy reintegratsiya masalasida yurtimizda mutlaqo yangi bosqichni boshlab beradi. Bu yo‘nalish yoshlarni jamiyatga qaytarish, ularni mehnat bozoriga moslashtirish va yangi hayot boshlashi uchun real sharoit yaratishga qaratilgan.

Umuman olganda, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga doir tashabbuslar yoshlarning hayot sifatini yaxshilash bilan birga, ularning jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu yo‘nalishlarda ko‘zlangan asosiy maqsad — imkoniyati turlicha bo‘lgan yoshlarni teng qo‘llab-quvvatlash va har birining kelajakka bo‘lgan ishonchini kuchaytirishdir.

Yoshlar siyosatida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli o‘zgarishlarning yana bir yirik yo‘nalishi — ta’lim va bandlik masalalaridir. Bugungi global mehnat bozori tobora murakkablashib borayotgan bir vaqtda, yoshlarning zamonaviy kasblarni o‘zlashtirishi va amaliy tajriba to‘plashiga sharoit yaratish davlat siyosatining ustuvor vazifasiga aylanmoqda. Muhtaram Shavkat Mirziyoyev ilgari surgan tashabbuslarda aynan shu talablar o‘z ifodasini topgan.

Avvalo, “Mening birinchi kasbim” dasturi doirasida oliygoh bitiruvchilariga stajirovka uchun oyiga 2 million so‘mgacha stipendiya to‘lanishi yoshlarning o‘z sohasida malaka oshirishi, tajriba orttirishi va mehnat bozoriga moslashuvini sezilarli tarzda yengillashtiradi. Bu tashabbus bitiruvchilar uchun nafaqat moddiy ko‘mak, balki ularga ishonch va yangi bosqichga o‘tish uchun zarur turtki vazifasini bajaradi.

Shuningdek, har bir tumanga 500 million so‘mgacha ssuda ajratilib, texnikum va o‘quv markazlarida kasb-hunar laboratoriyalarini tashkil etish rejasi yoshlar uchun amaliy ta’limning sifatini keskin oshiradi. Bunday laboratoriyalar zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan ishlashni, real ishlab chiqarish jarayonlarini o‘rganishni, tanlagan sohada mustahkam ko‘nikmalar shakllantirishni ta’minlaydi.

Yoshlarni zamonaviy kasblarga o‘qitish borasidagi hamkorlik yondashuvi ham alohida e’tiborga loyiq. Xususi o‘quv markazlari bilan hamkorlikda har yili 20 ming yoshni kelajak kasblariga o‘qitish tashabbusi davlat va nodavlat sektori o‘rtasida

tizimli hamkorlikni kuchaytiradi. Bu esa ta'lim xizmatlari bozorida raqobatni oshirib, sifatning yanada yaxshilanishiga olib keladi.

Olis hududlardagi o'quv markazlari uchun ijtimoiy soliqning 1 foizga, daromad solig'ining esa 7,5 foizgacha pasaytirilishi mazkur markazlarning faoliyatini rag'batlantiradi, yoshlar uchun ta'lim xizmatlarining hududlar bo'yicha teng taqsimlanishiga imkon yaratadi. Natijada, chekka tumanlarda yashovchi yoshlar ham zamonaviy kasblarni o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Shu bilan birga, o'quv markazlariga binosini ijaraga bergan tadbirkorlarni soliqdan ozod etish ham muhim rag'bat hisoblanadi. Bu mexanizm xizmat ko'rsatish infratuzilmasi rivojiga, ta'lim muassasalari sonining ko'payishiga va yoshlar uchun qulay sharoitlar yaratilishiga xizmat qiladi.

Yana bir e'tiborga loyiq yo'nalish — banklar tomonidan 50 ming yoshga bepul biznes-reja tayyorlab berilishi va 20 ming yoshni tadbirkorlikka o'qitilishi. Bunday yondashuv yoshlarni tadbirkorlikka keng jalb etadi, ularning o'zini namoyon qilishiga imkon beradi va iqtisodiyotning yangi drayverlarini shakllantirishga yordam beradi.

Umuman olganda, ta'lim, kasbiy rivojlanish va mehnat bozoriga kirib borish bo'yicha ilgari surilgan ushbu tashabbuslar yoshlarning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash, ularni global mehnat bozoridagi raqobatga tayyorlash va eng muhimi, o'z kuchiga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga qaratilgan. Bu tashabbuslarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi natijasida mamlakatimizda bilimli, zamonaviy, tashabbuskor va mas'uliyatli yoshlar avlodi shakllanib borishi shubhasiz.

Xulosa: Yoshlar bilan o'tkazilgan ochiq muloqotda ilgari surilgan tashabbuslar nafaqat navbatdagi rejalar majmui emas, balki yoshlar siyosatida yangi davrning boshlanishi sifatida baholash mumkin. Ularning har biri bugungi yoshning ehtiyoji, orzusi va intilishlariga javob beradi. Bu yangiliklar orqali davlatimiz rahbari, muhtaram Shavkat Mirziyoyev yoshlar kuchiga ishonchini, ular bilan birga taraqqiyot yo'lini bosib o'tishga tayyorligini yana bir bor amalda namoyon etdi.

Ta'limdan tortib tadbirkorlikka, innovatsiyalardan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimigacha bo'lgan keng qamrovli yondashuv yoshlarning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu esa kelajakda bilimli, tashabbuskor, bunyodkor va eng muhimi, o'ziga ishonadigan yoshlar avlodini shakllantirishga zamin yaratadi.

Bugun yoshlarning qo'lida imkoniyatlar ko'paymoqda. Eng muhimi, ularning har bir g'oyasi, har bir intilishi va har bir mehnati qadrlanayotgan bir muhit shakllanmoqda. Bunday e'tibor va ko'mak bilan yoshlar ertangi kunning ishonchli tayanchi, zamonaviy iqtisodiyot va kuchli fuqarolik jamiyatining bosh harakatlantiruvchi kuchiga aylanadi.

Shu tarzda, muloqotda belgilangan maqsadlar nafaqat bugunning vazifasi, balki kelajak taraqqiyotining mustahkam poydevori bo'lib xizmat qiladi.